

KUZ SARHISOBI

Sovuq chertar xonamni tinmay,
Tushlar aldar men musofirni.
Oq choyshabin keldi yopinmay...
Qarshi oldim men dekabrni.
Jaranglaydi budilnik tinmay
Lek tushlarim qo'ymas quchog'dan.
Qishlog'imda bo'lsam erinmay,
Choy ichardim eski o'chog'dan.
Ortda qoldi so'nggi kuz tuni..
G'alatiroq bo'ldim negadir.
Tashqarida kutardi meni
Issiq metro, sovuq dekabr.

ONA XALQIM.

Ko'zim ochganimda boshimda turib.
Peshonamdan o'pib bosding issiq lab
Jajji go'dagim deb ko'kka ko'tarib
Deding:yuragingga qo'yay o't qalab
Qalbimga o't qalab yoqding masha'la
Qalbim bilan ko'rdim Vatan yuzini
Ulug'lik unidan qorib zuvala
Yurak olovida pishirding uni
Sening mehnatingni bilmoq istagan
Boqsin peshonanggu kaft chizig'ingga
Kecha mehnatingdan ayb izlagan
Bugun uzr so'rab kirar izmingga
Paxta egatlarda fartuk bosh qo'yib
Uxlab qolganingga kim tavon to'lar
Yana tong sahardan yerga egilib
Charchab tolganingga kim tavon to'lar.
Uydagi ayoling echki qilimas
O'zicha mazlumni boplab savalar
O'zidan o'tganin boshqasi bilmas
O'zin jarohatin o'zi davolar
Tangriga ming shukr,benazir shukr
Dorulomon kunga yetding entikib
Dilda shukh,tilda ming ezgu fikr.

Endi yashamaysan baxtga ko‘z tikib.
Endi baxt boshingda bo‘lar girgitton
Yursang oyoqlaring baxtga surinar
Bilib qo‘y bo‘lmagay xech diling xufton
Baxting quyosh bo‘lib tongda ko‘rinar.